


## 2020- YILDA TOSHKENT SHAHRIDA TURIZM



### 2018-2020- yillarda turistik firma va tashkilotlar faoliyati



2020- yilda 229 ta turistik firma va tashkilotlar faoliyat yuritgan bo'lib, 88,1 ming nafar tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatgan. Qabul qilingan fuqarolar 71,9 ming kishini tashkil etgan bo'lib, ularning 20,6 % foizi chet el fuqarolaridan iborat. Yuborilgan fuqarolar 10,9 ming kishini tashkil etgan bo'lib, ularning 57,6 % foizi chet elga safar qilgan bo'lsa, qolgan 42,4 % foizi O'zbekiston Respublikasi bo'ylab sayohat qilgan.

Turfirma va turistik tashkilotlar tomonidan 58,8 ming dona tur sotilgan. Ulardan 11,0 mingtasi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan sotilgan.




**2020- yilda jamoaviy joylashtirish vositalari  
obyektlari soni, birlikda**

**Mehmonxona va shunga  
o'xshash joylashtirish  
vositalari**

Mehmonxonalar  
Motellar  
Mehmonxona tipidagi  
pansionatlar  
Qisqa muddatli yashash uchun  
boshqa joylar

**Ixtisoslashtirilgan  
joylashtirish vositalari**

Dam olish pansionatlari  
Dam olish uylari  
Kemping  
Sanatoriyalar  
Turistik bazalar



**Individual  
joylashtirish  
vositalari**

Mehmon uylari  
O'tov lagerlari  
Turar joylarning boshqa  
turlari

**Boshqa joylashtirish  
vositalari**

Xostellar (yoshlar  
mehmonxonalari)  
Yotoqxonalar

Jamoaviy joylashtirish vositalari mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari (242 ta), ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari (42 ta), individual joylashtirish vositalari (21 ta) va boshqa joylashtirish vositalaridan (29 ta) iborat.



**2020- yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish  
vositalari nomer (xona)lar soni, birlikda**

Mehmonxona va  
shunga o'xshash  
joylashtirish  
vositalari  
nomer (xona)lari



Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari tarkibiga mehmonxona, motel, pansionat (mehmonxona tipidagi) va qisqa muddat yashash uchun mo'ljallangan boshqa joylar kiradi. Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalaridagi nomerlar 8,2 mingtani, joylar 16,0 mingtani tashkil etdi. Joylashtirilgan shaxslar 289,4 ming kishini tashkil etgan bo'lib, ularning 69,2 % foizi O'zbekiston fuqarolari, 12,3 % MDH davlatlari fuqarolari va qolganlari (18,5 %) uzoq xorijiy davlat fuqarolaridan iborat. Tunab qolishlar soni 803,3 mingtani tashkil etdi.



**2020- yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarining joylar fondi, birlikda**




Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari: 2 ta dam olish pansionatlari, 11 ta dam olish uylari, bazalari, 5 ta katta yoshlilar uchun sanatoriya, 3 ta bolalar uchun sanatoriya, 3 ta doimiy faoliyat ko'rsatuvchi sog'lomlashtirish sanatoriya oromgohi, 2 ta sanatoriya – profilaktoriya, 1 ta sanatoriya-kurort muassasalarining boshqa turlari, 2 ta turistik baza, 12 ta boshqa ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalaridan iborat.

Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari nomer fondi 1,8 ming nomerlar (xonalar) va 7,0 mingta joylardan iborat. Joylashtirilgan shaxslar soni 38,0 ming kishini tashkil etgan.

Individual joylashtirish vositalari: 18 ta mehmon uylari, 2 ta individual joylashtirish vositalarining boshqa turlaridan iborat. Individual joylashtirish vositalari nomer fondi 169 ta nomerlar (xonalar) va 578 ta joylardan tashkil topgan. Joylashtirilgan shaxslar soni 7,3 ming kishi.



**2020- yilda safar maqsadlari bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, ming kishi**



Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslar 7,3 ming nafarni tashkil etgan bo'lib, ularning 26,1 % foizi ish va kasbga oid maqsadlar yuzasidan, 7,9 % foizi bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, 6,7 % foizi do'stlar va qarindoshlardan xabar olish maqsadida, 4,9 % foizi ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida, 19,8 % foizi davolovchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalar maqsadida, 0,7 % foizi do'konlarga tashrif maqsadida, 33,9 % foizi tranzit va boshqa shaxsiy maqsadlarda kelgan.




Turish muddati bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, ming kishi



Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, 1 – 3 kun tunab qolganlar 77,7 %, 4 – 7 kun tunab qolganlar 14,2 %, 8 – 28 kun tunab qolganlar 7,1 %, 29 – 91 kun tunab qolganlar 0,9 %, 92 – 365 kun tunab qolganlar 0,1 % ni tashkil etgan.




2020- yilda safar maqsadlari bo'yicha  
ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida  
joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, foizda



Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslar 38,1 ming nafarni tashkil etgan bo'lib, 95,2 % foizi O'zbekiston fuqarolari, 4,3 % foizi MDH fuqarolari, 0,5 % foizi uzoq xorijiy mamlakat fuqarolarini tashkil etdi. Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning 46,8 % foizi davolanish va sog'lomlashtirish maqsadida, 47,0 % foizi bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, 0,1 % foizi boshqa shaxsiy maqsadda, 5,8% foizi ish bo'yicha va kasbi yuzasidan, 0,2 % kasbiy tayyorgarlik maqsadida, 0,1 % shaxslar do'stlar va qarindoshlarni yo'qlash maqsadida tashrif buyurgan. Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, 1 – 3 kun tunab qolganlar 28,2 %, 4 – 7 kun tunab qolganlar 23,0 %, 8 – 28 kun tunab qolganlar 40,6 %, 29 – 91 kun tunab qolganlar 7,7 %, 92 – 365 kun tunab qolganlar 0,5 % ni tashkil etgan.



**2020- yilda turish muddati bo'yicha ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, ming kishi**



Quyidagi jadvaldan ko'rish mumkinki, 1–3 kun tunab qolganlarning asosiy qismi Yakkasaroy tumanida (73,9%) va Yashnobod tumanida (16,1%) qayd etilgan. 4-7 kun tunab qolganlarning asosiy qismi Yakkasaroy tumani (32,8%) va Yunusobod tumanida (25,6%) qayd etilgan. 8-28 kun tunab qolganlarning asosiy qismi Yunusobod tumanida (31,6%) va M.Ulug'bek tumanida (26,7%) qayd etilgan.





**2020- yilda turish muddati bo'yicha ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, kishi**

	Jami	Turish muddati bo'yicha:				
		1-3 kun tunash	4-7 kun tunash	8-28 kun tunash	29-91 kun tunash	183-365 kun tunash
<b>Toshkent sh.</b>	<b>38061</b>	<b>10732</b>	<b>8737</b>	<b>15460</b>	<b>2920</b>	<b>212</b>
Shu jumladan tumanlar:						
Uchtepa	941	90	41	-	810	-
Yunusobod	7288	-	2233	4843	-	212
M.Ulug'bek	5676	-	-	4121	1555	-
Mirobod	5627	851	1517	2879	380	-
Yakkasaroy	12772	7933	2866	1973	-	-
Yashnobod	4272	1733	1056	1308	175	-
Chilonzor	1485	125	1024	336	-	-